

Qomusni bilish – nomusni tanish

Talaba yoshlarni har jihatdan sogʻlom va barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning siyosiy-huquqiy madaniyati, bilimini hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligini oshirish maqsadida 12-dekabr kuni TTJ-3 da “Konstitutsiya bilimdoni” koʻrik - tanlovi boʻlib oʻtdi. Tanlovda oʻzining bilimlarini sinash uchun “Temuriy avlodlari” hamda “Qomus” jamoalari ishtirok etishdi. Dastlab Oʻzbekiston Respublikasi davlat madhiyasi yangradi. Soʻngra jamoalar tanlovi boshlandi. Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyati, hayotimizda tutgan oʻrni va ahamiyati boʻyicha talaba yoshlarning bilimini namoyish etish uchun “Savol-javob”, “Erkin mavzu”, “Devoriy koʻrgazmalar” kabi shartdan iborat qiziqarli tanlovda hayʼat aʼzolari “Gidromelioratsiya” fakulteti maʼnaviy ishlar boʻyicha dekan muovini X.Toʻychiyev, “Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrasida assistenti Sh. Mardiyev, “Gidrologiya va Gedrogeologiya” kafedrasida dotsenti S. Nurjanov, “SXE va B” fakulteti maʼnaviy ishlar boʻyicha dekan muovini J.Turdiyev hamda tarbiyachi pedagog A.Xaitovalar jamoalarni munosib baholab borishdi. Umumiy hisobda toʻplagan ballari boʻyicha “Qomus” jamoasini bir ovozdan gʻolib deb eʼlon qilishdi. Tadbirning ikkinchi qismida Yoshlar bilan ishlash boʻyicha prorektor Q.A.Shovazov va TTJ-3 tarbiyachi pedagogi A.Xaitova tomonlaridan tashkil etilgan taqdirlash marosimida barcha tanlov hamda maʼnaviy tadbirlarda faol ishtirok etib kelayotgan talaba-yoshlar esdalik sovgʻalari, diplom va faxriy yorliqlar bilan taqdirlanishdi.



“Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrasida assistenti Sh. Mardiyev axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov